

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR-**

1995 yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

1-2023

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

S.Inoyatova	
Oilaviy munosabatlarda shaxsning milliy va umummadaniy dunyoqarashining shakllanishidagi shart-sharoitlar	207
U.Qurbonov	
Mishel Monten falsafasida gumanistik antropotsentrizm masalalari	212
G.Ravshanova	
Ta'lim –tarbiya muassasalarida axborot-kutubxona ishlarini tashkil etishning ma'naviy-axloqiy jihatlari	216
O.O'roqova	
Sharq romantizmining estetik xususiyatlari.....	219
F.Rabbimova	
Tasavvuf va futuvvat ta'limotlari haqida mulohazalar	222
D.Axmedova	
Ayollar tadbirkorligini rivojlantirishning asoslari	226
N.Sabirov	
Fuqarolik jamiyati institutlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari	231
Sh.Murtozayev	
Abu Hafs Umar Suhravardiy inson nafsini anglashga doir falsafiy qarashlarining tahlili.....	236
I.M.Arzimatova	
Ayol rahbar kadrlarning axloqiy va estetik madaniyatini rivojlantirishning falsafiy jihatlari	240
A.A.Tojaliyev	
Oliy ta'lim- Yangi O'zbekistonni barpo etishning muhim sharti	245
A.A.Abdumalikov	
Innovatsion ekologik tafakkurni shakllantirishning ijtimoiy-falsafiy asoslari	249
O'.X.Rajabov	
“Yangi O'zbekiston - ma'rifatli jamiyat” konsepsiyasini amalga oshirishda konsensus madaniyatining ahamiyati	253
	SIYOSAT
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimining huquqiy asoslarini takomillashtirish	258
A.Xudayberdiyev	
Globalashuv sharoitida xalqaro siyosat va missionerlik.....	263
O.Majidov	
O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini rivojlantirish bo'yicha yangilangan siyosatning ayrim jihatlari va ijodiy xususiyatlari	268
M.U.Jo'rayev	
Ichki ishlar organlarida boshqaruv tizimini takomillashtirishning o'ziga xos xususiyatlari	273
Sultonov Javohir, Mamajonov Farhod	
Xalqaro munosabatlarda konstruktivizm nazariyasining o'ziga xosligi	279
J.Sh.Museyibzada	
Yevropa parlamentiga kirish va tahlil	285
	TARIH
I.G'ulomov	
Turkistonda o'tkazilgan aholini ro'yxatga olish tadbiri.....	292
U.O'sarov	
XIX asr ikkinchi yarmi – XX asr boshlarida Turkiston o'lkasi qishloq xo'jaligida Sholi yetishtirish va uning ahvoli	297
F.Utayeva, B.Safarov	
Buxoro ip-gazlama kombinatining qurilish tarixi va ishlab chiqarish faoliyati	303
A.Usmonov	
Badiiy hunarmandchilik bilan bog'liq nomoddiy madaniy meroslar	308
A.Yarkulov	
Arxeologiya parklarining ba'zi o'ziga xos xususiyatlari	314
B.Usmanov	
Mustaqillik yillarida suv muammolarini bartaraf etishda davlat siyosati.....	320

**ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA BOSHQARUV TIZIMINING HUQUQIY ASOSLARINI
TAKOMILLASHTIRISH****СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ ПРАВОВОЙ БАЗЫ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ В
ОРГАНАХ ВНУТРЕННИХ ДЕЛ****IMPROVEMENT OF THE LEGAL BASIS OF THE MANAGEMENT SYSTEM IN
INTERNAL AFFAIRS BODIES****Jo'rayev Muhiddin Utkurovich¹****¹Jo'rayev Muhiddin Utkurovich¹**

– Yuridik fanlar bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Annotatsiya

Yangi O'zbekistonda ichki ishlar organlari tizimini takomillashtirish, ularning quyi bo'g'inlarini aholiga yanada yaqinlashtirgan holda mustahkamlash, barcha darajadagi tuzilmalarning vazifalari va funksiyalarini aniq belgilash, zamonaviy xavf-xatarlarni hisobga olgan holda kuch va vositalarni oqilona taqsimlashga qaratilgan keng qamrovli ishlar amalga oshirilmoqda. Maqolada ichki ishlar organlari boshqaruv tizimining o'ziga xos xususiyatlari, huquqiy asoslari, boshqaruv tizimini axborot bilan ta'minlash, boshqaruv tizimini moddiy-texnik ta'minlash, boshqaruvni takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari, tizimga innovatsion loyihalarni joriy etish kabi masalalar, shuningdek boshqaruv tizimini takomillashtirishga qaratilgan taklif-tavsiyalar ilgari surilgan.

Аннотация

Необходима комплексная работа, направленная на совершенствование системы органов внутренних дел в новом Узбекистане, усиление их низовых звеньев ближе к населению, четкое определение задач и функций структур всех уровней, рациональное распределение сил и средств с учетом современных рисков, реализуется. В статье рассмотрены особенности системы управления органов внутренних дел, правовые основы, информационное обеспечение системы управления, материально-техническое обеспечение системы управления, приоритетные направления совершенствования управления, внедрение в систему инновационных проектов, а также были выдвинуты такие вопросы, как предложения по улучшению системы управления.

Abstract

Comprehensive work aimed at improving the system of internal affairs bodies in new Uzbekistan, strengthening their lower links closer to the population, clearly defining the tasks and functions of structures at all levels, rational distribution of forces and means taking into account modern risks is being implemented. In the article, the specific features of the management system of internal affairs bodies, legal bases, information provision of the management system, material and technical support of the management system, priority areas of management improvement, introduction of innovative projects into the system, as well as issues such as the management system suggestions for improvement have been put forward.

Kalit so'zlar: ichki ishlar organlari, boshqaruv, tizim, axborot, innovatsiya, huquqbuzarlik, nazorat, vazifa, funksiya, element, printsip, omillar, kriminogen vaziyat, tezkor vaziyat.

Ключевые слова: органы внутренних дел, управление, система, информация, нововведение, правонарушение, контроль, задача, функция, элемент, принцип, факторы, криминогенная обстановка, оперативная обстановка.

Key words: internal affairs bodies, management, system, information, innovation, offense, control, task, function, element, principle, factors, criminogenic situation, operational situation.

Ma'lumki, barcha davlatlarning asosiy ichki funksiyalaridan biri huquq-tartibotni saqlash, fuqarolarning huquq va erkinliklarini himoya qilish hisoblanadi. Mazkur funktsiyaning bajarilishida ichki ishlar organlari muhim o'rin tutadi. Bugun IIO fuqarolarning huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini, jismoniy va yuridik shaxslarning mulkini, konstitutsiyaviy tuzumni himoya qilish, qonun ustuvorligini, shaxs, jamiyat va davlatning xavfsizligini ta'minlashning asosiy kafili hisoblanadi.

Mustaqillik yillarida IIO tizimini takomillashtirish borasida keng ko'lamli ishlar amalga oshirildi. Ayniqsa, IIOning mahallalarda jamoat tartibini saqlash, fuqarolar xavfsizligini ta'minlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish uchun tashkil etilgan quyi bo'g'inini rivojlantirish va mustahkamlash bo'yicha salmoqli ishlar amalga oshirildi. Bu esa, o'z navbatida, IIO faoliyati samaradorligini oshirish, fuqarolarning tinch va osoyishta hayot kechirishini ta'minlash, yurtimizda jinoyatchilikning o'sishiga yo'l qo'ymaslik imkonini berdi.

SIYOSAT

Shu bilan birga, yuzaga kelayotgan xavf-xatar va tahdidlar, avvalo, xalqaro terrorizm, diniy ekstremizm, noqonuniy migratsiya, odam savdosi, yoshlar o'rtasida xalqimizga yot g'oyalar tarqalishining tobora kuchayib borayotganligi IIO faoliyatini tubdan takomillashtirishni taqozo etdi.

Ayniqsa IIOning doimo xalq bilan birga bo'ladigan, xalqning og'irini yengil, mushkulini oson qiladigan, tinchlik va osoyishtalik hamda qonun ustuvorligining kafili bo'ladigan chinakam xalqparvar tizimga aylantirish, jamoat tartibini saqlash, huquqbuzarliklar profilaktikasi va jinoyatchilikka qarshi kurashish bo'yicha joylarda hududlar tajribasining joriy etilishi hamda ularni ommalashtirish, IIO faoliyatiga innovatsion loyihalarni tatbiq etish, IIO tizimi, tashkiliy tuzilishi, moddiy-texnik bazasi va kadrlar salohiyatini takomillashtirish bilan bog'liq chora-tadbirlar IIOning boshqaruv tizimining huquqiy va institutsional asoslarining qayta tashkil etilishiga olib keldi.

M.Z.Ziyodullayev ichki ishlar organlari, xususan tayan punktlari faoliyatining huquqiy asoslarini ikki guruhga: a) fuqarolarning xulq-atvori, huquq va erkinliklarini ma'lum harakatlarini amalga oshirishda o'rnatilgan taqiqlar va ularni buzganlik uchun javobgarlikni nazarda tutuvchi normalarni o'z ichiga olgan tartibga soluvchi; b) tayanch punktlari vazifalari, funksiyalari, faoliyatining shakl va usullarini ko'rsatuvchi normalarni o'z ichiga olgan belgilovchi normativ-huquqiy hujjatlarga ajratish mumkin deb hisoblaydi¹¹. Bizning fikrimizcha esa IIOning (shu jumladan tayanch punktlari) faoliyatning huquqiy asoslari bundan ancha keng qamrovli hisoblanadi. Xususan, IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari sifatida quyidagilarni ko'rib chiqish mumkin:

O'zbekiston Respublikasining Konstitutsiyasi. Asosiy qonunning tegishli moddalaridagi normalar IIO boshqaruv tizimini shakllantirish hamda boshqaruvni amalga oshirishda rahbariy huquqiy asos bo'lib xizmat qiladi. Bu birinchi galda Konstitutsiyaning asosiy huquqiy maqomi bilan bog'liq. Shu bilan birga tahlillar Konstitutsiya IIO boshqaruv tizimining konseptual hamda kompetensual huquqiy asosi bo'lib xizmat qilishini ko'rsatmoqda.

Konstitutsiyaning quyidagi normalari ishlar organlari boshqaruv tizimining konseptual huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunda tegishli normalar ichki ishlar organlarni faoliyatini tashkil etishning prinsipial-rahbariy asosi bo'ladi:

Konstitutsiyaning 2-moddasida davlat xalq irodasini ifoda etib, uning manfaatlariga xizmat qilishi, davlat organlari va mansabdor shaxslar jamiyat va fuqarolar oldida mas'ul ekanligi nazarda tutilgan.

Umuman olganda, bugun yurtimizda Harakatlar strategiyasi asosida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida ham xalq manfaatlarini ifodalash hamda amalda ta'minlash turadi. Fuqarolarning davlatdan, amalga oshirilayotgan islohotlardan roziligiga erishishda IIO muhim rol o'ynaydi. Zero, IIO haqni nohaqdan ajratadigan, tinchlik va osoyishtalikni ta'minlaydigan, adolat va qonun ustuvorligini qaror toptiradigan tuzilma hisoblanadi. Shuning uchun ham davlatimiz rahbari shunday degan edi: «Ichki ishlar organlarining shunday ishlashi kerakki, toki xalq davlatdan rozi bo'lsin» .

Islohotlar natijasida IIOning barcha tarkibiy tuzilmalari faoliyati butunlay yangi talablar asosida tashkil etildi va har bir tarkibiy tuzilma faoliyatining markaziy maqsadi xalq manfaatlariga xizmat qilishga yo'naltirildi. Bu esa el-yurtimizning ishonchi va mehrini qozongan, tom ma'nodagi xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratishga xizmat qilmoqda¹².

Konstitutsiyaning tegishli normalari IIO boshqaruv tizimining kompetensual huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi. Bunda tegishli normalar IIOning faoliyat yo'nalishlari, funksiyalari, vazifalari hamda majburiyatlari va vakolatlarini belgilashning konstitutsiyaviy-huquqiy asosini tashkil etadi. Xususan, 13-modda inson, uning hayoti, erkinligi, sha'ni, qadr-qimmatini va boshqa daxlsiz huquqlari oliy qadriyat hisoblanishining belgilanishi IIO faoliyatining asosiy maqsadi, asosiy faoliyat yo'nalishlari hamda vazifalari, funksiyalari va majburiyatlari tizimida o'z ifodasini topgan.

Tahlillar IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari tizimida **O'zbekiston Respublikasining qonunlari** muhim o'ringa ekanligini ko'rsatmoqda. Xususan, bu borada O'zbekiston Respublikasining 2016-yil 16-sentyabrda qabul qilingan «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonuni asosiy o'rin tutadi.

¹¹ Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 96.

¹² Muxamedov O'X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 27.

Mazkur qonun qabul qilinishi munosabati bilan IIONing huquqiy maqomi, vakolatlari, majburiyatlari va huquqlari, IIOda xizmatni o'tash tartibi va shartlarining qonun darajasidagi huquqiy asosi vujudga keldi hamda huquqbuzarliklarning oldini olish, jinoyatchilikka qarshi kurashish, jamoat tartibini saqlash, fuqarolarning haq-huquqlarini himoya qilish, jamoatchilik bilan aloqalarni yanada mustahkamlash borasidagi ishlarni yangi bosqichga olib chiqishning mustahkam huquqiy zamini vujudga keldi.

O'.X.Muxamedov «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonun qabul qilinishining ahamiyati mazkur qonun bilan tartibga solinadigan munosabatlarning davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rnini bilan o'lchanadi deb ta'kidlaydi va mazkur qonun quyidagi muhim munosabatlarni tartibga solishi bilan tarixiy ahamiyatga ega deb hisoblaydi: IIONing huquqiy maqomi bilan bog'liq munosabatlar; huquqni muhofaza qilish faoliyatining asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida fuqarolarning konstitutsiyaviy huquqlarini himoya qilish, mamlakat tinchligi, osoyishtaligi va xavfsizligini mustahkamlashga qaratilgan faoliyatni; fuqarolarning huquq va erkinliklari hamda qonuniy manfaatlarini himoya qilish va amalda ta'minlashda IIONing ishtirokini; davlat xizmatining muhim yo'nalishlaridan biri – IIOda xizmat o'tash bilan bog'liq munosabatlarni; inson huquqlari bo'yicha xalqaro standartlarni milliy qonunchilik va huquqni qo'llash amaliyotiga bosqichma-bosqich implementatsiya qilishning navbatdagi muhim bosqichini belgilab berdi¹³.

Fikrimizcha, muallif «Ichki ishlar organlari to'g'risida»gi Qonunning yana bir muhim jihatini e'tibordan chetda qoldirgan. Mazkur qonun bilan IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari ham belgilangan. Mazkur qonunning deyarli barcha normalari IIONing boshqaruv tizimiga oid munosabatlarni u yoki bu darajada tartibga soladi.

Shunday qilib, yuqoridagi qonunlar IIO boshqaruv tizimining muhim jihatlari (vakolatlari, vazifalari, funksiyalari, faoliyat yo'nalishlari)ning huquqiy asosi bo'lib xizmat qiladi.

IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari haqida so'z yuritilganda O'zbekiston Respublikasining kodekslari alohida o'rin tutishini ta'kidlab o'tish joiz. M.Z. Ziyodullayev IIONing tayanch punktlarini boshqarishni huquqiy ta'minlash haqida so'z yuritib bu borada Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi, Jinoyat hamda jinoyat protsessual kodekslarni misol sifatida keltiradi¹⁴.

Biroq qonun hujjatlari tahlili IIONi (shu jumladan tayanch punktlarini) boshqarishning huquqiy asosi sifatida boshqa kodekslarning tegishli normalari mavjudligini ko'rsatmoqda. Xususan, Jinoyat-ijroiya kodeksining 14-moddasiga binoan muayyan huquqdan mahrum qilish, majburiy jamoat ishlari, axloq tuzatish ishlari, ozodlikni cheklash, ozodlikdan mahrum qilish va umrbod ozodlikdan mahrum qilish jazosining ijrosi IIOga yuklatilgan.

IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlari ham alohida o'rin tutadi. Bu avvalo O'zbekiston Respublikasi IIV bevosita O'zbekiston Respublikasi Prezidentiga, qonun hujjatlariga muvofiq ayrim masalalar bo'yicha esa O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga bo'ysunishi bilan bog'liq sanaladi.

Shunday qilib, IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining hujjatlarini quyidagi guruhlariga tasniflash mumkin:

IIONing boshqaruv tizimi bilan bog'liq munosabatlarni bevosita tartibga soluvchi hujjatlar;

IIONing tegishli sohaviy xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlar;

IIOda boshqaruvni ta'minlash bilan bog'liq hujjatlar;

hududiy ichki IIO faoliyatida boshqaruvni tashkil etish bilan bog'liq hujjatlar.

IIO tizimini isloh qilishda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 10-apreldagi «Ichki ishlar organlarining faoliyati samaradorligini tubdan oshirish, jamoat tartibini, fuqarolar huquqlari, erkinliklari va qonuniy manfaatlarini ishonchli himoya qilishni ta'minlashda ularning mas'uliyatini kuchaytirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-5005-son Farmoni alohida ahamiyatga ega hisoblanadi.

Fikrimizcha, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining mazkur farmoni quyidagi ikki jihati bilan IIONing boshqaruv tizimini takomillashtirishga xizmat qiladi:

birinchisi – IIONing *strukturasida jiddiy tahririy o'zgarishlarni vujudga keltirdi;*

ikkinchisi – IIO boshqaruv tizimining konseptual asoslarini tubdan yangilanishiga olib keldi.

¹³ Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 12–13.

¹⁴ Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 101–102.

SIYOSAT

Mazkur farmon bilan IIO tizimini isloh qilishning eng muhim yo'nalishlari belgilandi hamda IIO tizimini tubdan isloh qilish kompleks chora-tadbirlar dasturi tasdiqlandi. Dasturga IIO tizimini tubdan isloh qilish bo'yicha 78 banddan iborat chora-tadbirlar kiritildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-apreldagi «Ichki ishlar organlari faoliyatini yanada takomillashtirishga doir tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida»gi 2883-sonli Qarori ham IIO, shu jumladan IIOning boshqaruv tizimini tubdan takomillashtirishga xizmat qildi.

Ushbu qaror bilan O'zbekiston Respublikasi IIV to'g'risidagi nizom tasdiqlandi. Nizomda IIOda boshqaruvning muhim jihatlari hisoblangan vazirlikning huquqiy maqomi, asosiy vazifalari va funksiyalari, huquqlari va javobgarligi hamda vazirlik faoliyatini tashkil etish kabilar belgilab qo'yildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 23-avgustdagi «Ichki ishlar organlari boshqaruv, nazorat va shaxsiy tarkib bilan ishlashning samarali tizimini joriy etish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risida»gi PQ-3919-son Qarori bilan IIOning kundalik faoliyatini tashkil etish tizimini yanada takomillashtirishning ustuvor yo'nalishlari belgilandi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining IIOning tegishli sohaviy xizmatlari faoliyatini tartibga soluvchi hujjatlari. Mazkur toifadagi hujjatlar IIOning ma'lum sohaviy yo'nalishlari bo'yicha boshqaruv tizimini tashkil etish va takomillashtirishni nazarda tutishi bilan o'ziga xos xususiyat kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 18-apreldagi «Ichki ishlar organlarining huquqbuzarliklar profilaktikasi bo'linmalari faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PQ-2896-sonli Qarori bilan tarixda ilk bor IIOning huquqbuzarliklar profilaktikasiga oid faoliyati Prezident hujjati bilan belgilandi¹⁵. Mazkur qarorda IIV va uning hududiy bo'linmalarining huquqbuzarliklar profilaktikasi samaradorligini oshirishning eng asosiy yo'nalishlari belgilandi hamda O'zbekiston Respublikasi IIV Huquqbuzarliklar profilaktikasi bosh boshqarmasi to'g'risidagi va IIO tayanch punkti to'g'risidagi nizomlar tasdiqlandi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining tegishli hujjatlari ham IIO boshqaruv tizimini yanada takomillashtirishga xizmat qildi. Tahlillar O'zbekiston Respublikasi hukumatining hujjatlarini IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari sifatida quyidagicha tasniflash mumkinligini ko'rsatmoqda:

IIO boshqaruv tizimini ta'minlash bilan bog'liq hujjatlar;

IIOning sohaviy xizmatlar faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq hujjatlar;

hududiy IIO faoliyatini tashkil etish va boshqarish bilan bog'liq hujjatlar.

IIO boshqaruv tizimini ta'minlash bilan bog'liq hujjatlar. M.Z. Ziyodullayev IIO tayanch punktlarini boshqarishni ta'minlashni huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, kadrlar bilan ta'minlash hamda hamkorlikni ta'minlashga tasniflaydi¹⁶. IIOning tayanch punktlarini IIOning asosiy xususiyatlarini o'zida mujassam etgan IIOning quyi tipik bo'g'ini ekanligini hisobga olib, M.Z. Ziyodullayevning yuqoridagi fikrini metodik asos sifatida oladigan bo'lsak, IIO boshqaruv tizimini ham huquqiy, tashkiliy-metodik, moddiy-texnik, kadrlar bilan ta'minlash hamda hamkorlikni ta'minlashga ajratish mumkin.

IIOda boshqaruvni tashkil etishda vazirlikning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari alohida ahamiyatga ega. IIVning 1999-yil 31-yanvardagi «O'zbekiston Respublikasi IIOda nazorat tizimini takomillashtirish to'g'risida»gi 22-sonli buyrug'i bilan IIOda boshqaruvni amalga oshirishda nazorat tizimining huquqiy asoslari belgilangan. Bunda tegishli sohaviy xizmatlar va tarkibiy tuzilmalar tomonidan amalga oshiriladigan nazorat shakllari va tartibi, nazoratni amalga oshirish asoslari o'z ifodasini tongan. O'zbekiston Respublikasi Ichki ishlar vazirining 2017-yil 23-maydagi «O'zbekiston Respublikasi IIOning axborot-tahlil faoliyati va rejalashtirish ishlarini yanada takomillashtirish to'g'risida»gi buyrug'i bilan IIOning axborot-tahlil faoliyatini amalga oshirish tartibi to'g'risidagi yo'riqnoma tasdiqlangan bo'lib, unga ko'ra axborot-tahlil faoliyati mazmunan ichki ishlar organi boshlig'ining huquq-tartibotni saqlash va jinoyatchilikka qarshi kurashish, shuningdek ichki ishlar organining boshqa vazifalarini amalga oshirishda kechiktirib bo'lmaydigan, asoslangan va omilkor boshqaruv qarorlarini ishlab chiqilishini ta'minlashga qaratilganligi belgilab quyildi hamda IIOning

¹⁵ Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 227.

¹⁶ Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. avtoref. – T., 2019. – B. 18 – 19.

axborot-tahlil faoliyatining umumiy asoslari, axborot-tahlil faoliyatni amalga oshirish tartibi, axborot-tahlil faoliyat hujjatlarini rasmiylashtirish kabilar belgilandi.

Olib borgan tahlillarimiz shuni ko'rsatmoqdaki, IIO boshqaruv tizimida vazirlikning idoraviy normativ-huquqiy hujjatlari salmoqli o'rin tutadi. Buni quyidagilar bilan izohlash mumkin:

birinchidan, IIVning normativ-huquqiy hujjatlari IIOda boshqaruvni tashkil etishning barcha jihatlarini qamrab oladi;

ikkinchidan, IIOda boshqaruvni tashkil etish va amalga oshirishning aniq shakllari va usullarini ifodalaydi;

uchinchidan, IIO boshqaruv tizimida oid qonunlar, Prezident hamda hukumatning turli hujjatlarining ijrosiga oid munosabatlarni dialektik shaklda birlashtiradi.

Shunday qilib, IIO boshqaruv tizimining huquqiy asoslari turli normativ-huquqiy hujjatlar belgilangan bo'lib, bu bevosita IIONing davlat va jamiyat hayotida tutgan o'rne bilan bog'liq hisoblanadi.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 96.
2. Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 27.
3. Muxamedov O'.X. O'zbekistonda xalqparvar ichki ishlar tizimini yaratish istiqbollari: Monografiya. – T., 2020. – B. 12–13.
4. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. – T., 2019. – B. 101–102.
5. Ziyodullayev M.Z. Ichki ishlar organlarining tayanch punktlarini boshqarishni takomillashtirish: Yurid. fan. dok. (DSs) dis. avtoref. – T., 2019. – B. 18 – 19.